

JIZZAX VOHASI TOJIKLARINING KUNDALIK TURMUSH TARZIDA XO‘JALIK AN’ANALARINING SAQLANISHI

Mamarejabov Muhriddin

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada Jizzax vohasi tojiklarining kundalik turmush tarzida xo‘jalik an’analarining saqlanib qolishida ma’lumot berilgan, shu bilan birgalikda Markaziy Osiyo aholisining xo‘jaligi qadimdan tabiiy geografik xususiyatlarga bog‘liq holda shakllanishini ko‘rib o‘tamiz.*

Kalit so‘zlari: *Markaziy Osiyo, O‘rta osiyo, Jizzax vohasi, Dehqonchilik, Bog‘dorchilik, Loyqa, Tagob, Yayloq (Ko‘h).*

Markaziy Osiyo aholisi xo‘jaligi qadimdan tabiiy geografik xususiyatlarga bog‘liq xolda shakllanib, bronza davrida sodir bo‘lgan ilk mehnat taqsimoti tufayli dehqonchilik bilan shag‘ullanuvchi o‘troq va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘chmanchi guruhga ajralgan. Jizzax vohasida ham dehqonchilik bilan birgalikda, chorvachilik xo‘jaligi uchun ham qulay sharoitlar mavjud edi. Tabiiy joylashishi jihatidan yaylovlarning qulayligi, chorva uchun turli – tuman o‘tloqlar va o‘t – o‘lanlarning ko‘p bo‘lishi qo‘ylarning ko‘payishi va semirishiga imkon bergen. Morguzar tizmasiga qarashli o‘nlab tog‘ vodiylar, Nurota tog‘i etaklari va Mirzacho‘lga tutashib ketgan pasttekisliklar qadimdan o‘zining o‘t – o‘lanlarga boy yaylovlari bilan mashhur bo‘lgan.

Tadqiq etilayotgan hududda tabiiy sharoitdan kelib chiqqan holda chorvachilik xo‘jaligining ikki xil shakli ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchilik mavjud bo‘lgan. S.P.Polyakovning ta’kidlashicha, O‘rta Osiyoda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvachilikning meridional, vertikal va statsionar shakllari mavjud bo‘lgan”¹.

Jizzax vohasida chorvani saqlashning yuqorida sanab o‘tilgan barcha xili mavjud bo‘lsada, yaylov chorvachiligi ya’ni yarim ko‘chmanchilik keng ommalashgan. Tadqiqotchi F.E. Toshboevnnig yozishicha vohadagi meridional ko‘chuvchilar qishni qulay tog‘ vodiylarida ya’ni o‘zlarining qishlovlariada o‘tkazgan. Bahor kelib, kunlar isishi bilan chorvani haydab, o‘z qishlovlardan shimolga yoki Sirdaryoning quyi va yuqorisiga qarab, yozgi yaylovlariiga tomon harakatlana

¹ Поляков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана. – М.: МГУ. 1980. – С. 25.

boshlaganlar. Yoz bo‘yi haydab boqib semirtirilgan chorva kuzda qishlovga tomon qaytarilgan¹.

Bu usulda xo‘jalik yuritish Mirzacho‘l cho‘llarida yashagan qozoqlar uchun ta’lluqli bo‘lib, XX asrning 50-60 yillarida Mirzacho‘lni o‘zlashtirilishi bilan keskin qisqargan va o‘z faoliyatini qisman Forish tumanining Qizilqum cho‘llariga tutash dashtliklarida saqlab qolgan.

Jizzax vohasi aholisi chorvachilik xo‘jalik yuritish shaklini yaylov ko‘chmanchiligi deb atash mumkin. Mazkur usulda chorvaning asosini qo‘ylar tashkil etsada tuya va yilqichilik ham yaxshi rivojlangan. Ularning chorvasi yil davomida mavsumiy yaylovlarda boqilgan. CHorvadorlar ham chorvaning orqasidan bir yaylovdan ikkinchi yaylovga ko‘chib yurgan. Baland tog‘ mintaqalarida yashovchi qirg‘izlarning chorvasida yirik (ot, tuya, qoramol) hayvonlar ko‘pchilikni tashkil etgan bo‘lsa, tog‘da yashovchi turklar, voha o‘zbek qabila (qirq, yuz va saroy kabi)lari va qozoqlarning chorvasida qo‘ylar ko‘pchilikni tashkil etgan. Dashtning holatiga qarab qoramol ham saqlangan.

Vertikal ko‘chuvchilar Jizzax vohasining tog‘ va tog‘oldi hududlari aholisi xo‘jalik yuritishiga xos hisoblanadi. Ular bahor kelishi bilan chorvani tog‘larga haydab, kuzda yana pastga, tog‘ vodiylaridagi qishloviga tushib kelganlar va shu erda qishlagan². Mazkur usulda chorva yil davomida mavsumiy yaylovlar (tog‘ – tekislik shakli)da haydab boqilgan, chorva asosan cho‘ponlarning nazorati ostida bo‘lgan. Bu usul ko‘proq yarim ko‘chmanchi (yarim o‘troq) aholiga tegishli bo‘lib u, yaylov chorvachiligi deyiladi. Ular xo‘jaligida qo‘ylar chorvaning asosini tashkil etgan. Xo‘jalik yuritishning bu shaklida, mavsumiy yaylovlardagi o‘simpliklar avjiga bog‘liq holda ba’zi xonadon vakillari qishloqlaridan o‘z yaylovlari qarab ko‘chganlar. Qishda chorvadorlar o‘zlarining (hozirgi paytda qishloqlarining) vodiyyagini karorgohlari (yoki uylari)da qishlab atrofdagi yaylovlar va zahira ozuqalar bilan chorvani qishdan chiqarganlar.

Bu usulda ushoq mollar va qora mollar erta bahorda adirlarda boqilgan. Aprel, may oylaridan chorva qishloq atrofidagi ekin maydonlaridan uzoqroqqa, tog‘ tomonga olib ketilgan. Aholining esa ma’lum qismi chorva orqasidan ko‘chib chiqqan. Bunda, yozgi yaylovlarga cho‘pon o‘z oilasi bilan ketgan. Oilaning ba’zi erkak a’zolari yoz mavsumida qishloqla qolishib ekinlarga qaragan, qishga em-xashak yiqqan. Lalmi dehqonchilik bilan ham shug‘ullangan. CHorvaning bunday boqish tartibi, ekinlarning payhon bo‘lmasligini kafolatlagan va uzoq yaylovlardan unumli foydalanish imkonini

¹ Toshboyev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antic davrdagi madaniyati. Toshkent, «TAFAKKUR QANOTI», 2014. 6.50.

² Toshboyev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antic davrdagi madaniyati... 2014. 6.50.

bergan¹. CHunki yozda qishloq va uning atrofidagi erlar ekinlar bilan band bo‘lgan va bu paytda chorvani boqish uchun yaylovlar etishmagan. YOzda qishloqda sut beradigan mollargina qoldirilgan. Bu shakldagi xo‘jalik yuritish shakli Zomin, Baxmal, G‘allaorol, SH.Rashidov tumanlarida bo‘lgani kabi Forish tumanida asosan tojiklar yashaydigan hududlar tog‘ oldi mintaqalariga xos xisoblansada, bugungi kunda zamon taraqqiyoti tufayli keskin kamayib bormoqda.

Vohada keng yoyilgan chorvachilik turi statsionar ko‘chuvchilar bo‘lib ular mintaqaning ko‘proq dehqonchilik vohalariga yaqin hududlarida keng yoyilgan. Ularda yaylov chorvachiligining haydov usuli keng yoyilgan. Bunda chorva mollarini boqishning ikki xil usuli mavjud. Birinchisi, cho‘ponlarga berib qishloq atrofidagi yaylovarda kunlik (ertadan kechgacha) boqish, ikkinchisi, asosan chorvasi ko‘p xonadonlarning o‘z mollarini tog‘ yaylovlarida boqish uchun cho‘ponlarga berib yuborishi. Ular chorvasining asosini ushoq mollar va qora mollar (qo‘y, echki) tashkil etadi. CHorva qishloqqa qarashli doimiy yaylovlar va qishloqlar atrofida ekindan bo‘shagan erlarda cho‘ponlar tomonidan boqilgan. Mahalliy aholi asosan, davlat ishlari va uydagi xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanadi.

Vohada, chorvachilikning qo‘ra (og‘il) yaylov usuli keng ommalashgan bo‘lib, bugungi kunda voha chorvadorlarining katta qismi shu usulda chorvasini saqlamoqda. Bu asosan, hozirgi paytda to‘liq o‘troqlashagn aholi yashash tarziga ta’lluqli bo‘lib, undan chorva uchun yaylov etarli bo‘lmagan joylarda foydalaniladi. Uy sharoitida saqlanadigan chorva erta tongdan haydab ketiladi kech kirishi bilan qishloqqa qaytarib kelinadi. CHorva asosan, qo‘lda oziqlantiriladi. Bugungi kunda aholi orasida **uy chorvachiliqi** ham keng yoyilmoqda. Unda chorva mollarining nafaqat soniga balki, nasliga ham alohida e’tibor berila boshlandi. CHunki, qishloqlarda yashovchi ko‘pchilik aholi uchun chorvachilikning ushbu tarmog‘i oziq-ovqat manbai emas, balki, asosiy daromad manbaiga aylandi. Xo‘jaliklarda uy sharoitida bo‘rdoqiga qo‘chqor va buqa boqish, sog‘in sigirlar sonini ko‘paytirish aholiga yildan yilga ko‘proq daromad keltirmoqda. Bunday usulda ko‘p bo‘lmagan chorva dalalarga va yaylovlarga doimo chiqarilmagan holda aksari uy sharoitida boqiladi.

Agar voha chorvachiligi tarixida meridional va vertikal ko‘chuvchilar uchun er-yaylovlar qimmatli hisoblangan bo‘lsa, issiq iqlimli dasht aholisi uchun er, yaylov unchalik ahamiyat kasb etmagan. CHunki dasht cha cho‘lli yaylovlar ulkan bo‘lsada, o‘t xashak ozuqasi mo‘l bo‘lmagan. SHuning uchun ularda yaylov tanqisligi emas, balki suv muammosi katta ahamiyatga ega bo‘lgan². CHorva suvlay oladigan yaylovlari bor joylar hamisha qimmatli hisoblangan.

¹ Поляков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана... – С. 51.

² Toshboyev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antic davrdagi madaniyati... Б. 51.

V.F. Karavaevning XX asr boshlariga oid kundaliklarida Turkiston hududiga ruslarning kelishi arafasida, Sirdaryo sohillarida o‘zbek, qirg‘iz va kozoqlarning qishki ovullari mayjud bo‘lganligi, bu ko‘chmanchi chorvador aholi bahor va yoz oylarida tog‘ atrofidagi yaylovlarga ko‘chib ketishganligi. Kuzda esa yana qishlovlari tomon qaytib kelishi va keng yaylovlar egasi ekanligi haqida ma’lumotlar beradi¹. Jizzax vohasida XX asrning 30-yillarigacha ko‘chmanchi-chorvadorlar aholining yarmidan ko‘pini tashkil etgan. SHu sababli, chorvachilik Jizzax vohasida etakchi xo‘jalik tarmoqlardan biri hisoblangan. Qulay iqlim, keng yaylovlarning bo‘lishi chorvachilik rivojiga keng imkoniyat yaratgan. YAna muhim tomonlaridan biri chorva mollari boqish uchun o‘simliklar dunyosining mo‘lligi va rang-barangligi, uning davriy ketma-ketligidir. Vohada, o‘simliklar dunyosi iqlim sharoitiga qarab va yuqoriga ko‘tarilib borishi bo‘yicha quyidagicha joylashgan. CHo‘l, adir, tog‘ oldi va tog‘ yaylovlari.

CHo‘l tipidagi iqlimda o‘sadigan o‘simliklar asosan kam miqdorda tushadigan yog‘inlarning namligidan oziqlanadi. CHo‘l yaylovlari qo‘y va tuyalar uchun yil bo‘yi, boshqa chorva turlari uchun faqat bahorda yaylov vazifasini o‘taydi. Adirlar dengiz sathidan 400-800 metrgacha bo‘lgan balandlikka to‘g‘ri keladi. bunda cho‘lda o‘simliklar qovjiragan bir paytda xilma-xil tabiiy va madaniy o‘simliklar dunyosi chorva boqish uchun keyingi bosqichga o‘tish imkonini bergen. Morguzar va Nurota tog‘lari (o‘rtacha balandlikdagi) dengiz sathidan 800-1000 metrdan. 2000-2700 metrgacha balandlikda joylashgan. Tog‘ning quyi qismida yuqori adirlarda o‘sadigan o‘simliklar, yuqori qismida esa namgarchilikka moslashgan butazorlar(na’matak, do‘lana, zirk, uchqat va b.) bargli o‘rmonlar (yong‘oq, tog‘ olcha, olcha, olma, pista, olmurut, qayrog‘och), qisman archazorlar bir-biriga ulanib ketgan va sero‘t tog‘ o‘tloqlari keng tarqalgan. Voha chorva mollarining katta qismi yoz faslida tog‘ yaylovlari haydalgan. Dengiz sathidan 2500-2700 metr balandlikda yaylovlari (baland tog‘lar) bo‘lib, bu erda turli- tuman alp o‘tloqlari bo‘lib(archa, zarang, uchqat, irg‘ay, olmurut, qorataloq va boshqalar o‘sgan).

Jizzax vohasining tog‘ oldi va tog‘-yaylov zonasasi o‘simliklar dunyosining davriy ketma-ketligi voha chorvachiligi rivojida muhim omil sanaladi. XX asr boshlarida vohada istiqomat qilgan aholi ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi, yarim o‘troq va o‘troqlashgan holda faoliyat yuritgan. O‘troq aholi chorvachilikni dehqonchilik bilan birga qo‘sib olib borgan, dehqonchilik etakchi o‘rin tutgan, yarim o‘troq aholi xo‘jaligida dehqonchilik chorvachilik bilan qo‘sib olib borilgan, bunda chorvachilik etakchi o‘rinda turgan. Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchilar xo‘jaligida chorvachidlik asosiy rol o‘ynagan.

¹ Караваев В.Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Статистико – экономический очерк . – Спб.: Литография Н.Л. Нарекина, Петербург, 1914.

O‘troq aholining chorvachilik bilan shug‘ullanishining o‘ziga xos sabablari bor. Birinchidan, dehqonchilik uchun er haydashda, xirmon yanchishda, tegirmon, juvozlarni yurgizishda, transport (ulov) vazifasini bajarishda chorva mollari – ot, ho‘kiz, tuya, eshakdan foydalanilgan. Ikkinchidan, dehqon oilalarini go‘sht, sut, qatiq, jun, teri bilan chorva mollari ta’milagan, uchinchidan, dehqon ekini hosildorligini oshirishda qo‘y, sigir axlati (porisi) o‘g‘it vazifasini o‘tagan. Qolaversa, chorvachilik mahsulotlari vohaning ichki va tashqi savdosida asosiy tovar vazifasini o‘tagan.

Jizzax vohasida chorvachilik katta o‘rin tutib, bu erda qo‘y, echki, sigir, ho‘kiz, ot, eshak katta miqdorda boqilgan. Forish tog‘ va tog‘ oldi adirlarida katta miqdorda chorva mollari boqish imkonni bo‘lgan. Jizzax vohasi xo‘jaligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan E. Qobulovning ta’kidlashicha, XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida chorvachilikda qorako‘l terilari asosiy daromad manbai hisoblanib, tashqi savdoda yuqori baholangan¹. Jizzax vohasida ham qorako‘l qo‘ylari etishtirilib ular asosan, Forish tumanining Qizilqum cho‘llariga tutash cho‘lliklarida boqilgan.

SHunday qilib, Jizzax vohasi chorvadorlari dasht tog‘ va tog‘ oldi mintaqalarida o‘z chorvasini boqib, bir paytning o‘zida dexqonchilik uchun imkoniyat mavjud joylarda, qisman, ziroatchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Jizzax vohasining bepoyon dasht va cho‘lli mintaqalaridan tashqari, Turkiston tog‘lariga tutash baland tog‘liklarida ham chorvachilik xo‘jaligini rivojlantirish uchun barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan. Etnografik ma’lumotlar shimoliy cho‘l mintaqalari va Sirdaryo oqimi bo‘ylab mavsumiy ko‘chuvchi ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligi ham mavjud bo‘lganligini ko‘rsatmoqda. Mavsumiy tarzda ko‘chuvchi chorvadorlar uzoq shimol o‘lkalarigacha borar, qishda esa qishlovlariqa qaytib, vohaning dehqonchilik vohalari va hatto janubiy mintaqalar bilan ham bog‘lanib turardi.

Dehqonchilik. Tojik xalqining xo‘jalik mashg‘uloti qadimdan dehqonchilik va bog‘dorchilik hisoblanib, chorvachilik ham xo‘jalikda muhim rol o‘ynagan. Shuningdek, hunarmandchilikning yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik hamda kashtachilik turlari keng rivojlangan.

Tojiklarda yerni haydash uchun sipor va omoch ishlatilgan, shuningdek, qo‘shho‘kiz bilan ham haydalgan. Haydalgan yemi mola bilan tekislanib, go‘ng, kul, to‘kilgan barg va loyqa bilan o‘g‘itlangan. Ayrim hududlarda eski dcvor tuprog‘i, guvala va paxsa o‘g‘it sifatida ishlatilgan. Lalmi ycrlargaga asosan, arpa ekilgan. G‘andum (bug‘doy), arzan (tariq)jo xori, loviya, no xat, mosh, zig‘ir, lavlagi, piyoz, sabzi, qovoq, qalampir va boshqa ekinlar ekilgan.

¹ Э.Қобулов. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Термиз – 2014. –Б. 166

G‘alla g‘arami va xirnion oldiga xotin-qizlar, ayniqsa, yosh juvonlar yaqin yo‘latilmagan, it va boshqa hayvonlar yaqinlashtirilmagan. Xirmon oldiga suv olib kelish ta’qiqlangan. Chunki, suv g‘allani yanchish vaqtida yomg‘ir yogMshini so‘rash bilan baravar hisoblangan. Yanchilgan don ustidan sakrab o‘tishga ham ruxsat berilmagan.

Bog‘dorchilikda tog‘li hududlarga xos bo‘lgan mevali daraxtlar - tut, yong‘oq, olma va o‘rik daraxtlari ko‘proq parvarish qilingan. Mahalliy tojiklaming xo‘jalik yuritishining yana bir o‘ziga xos xususiyati shuki, uni joy relyefiga qarab tekisliklardan tog‘ga qarab o‘zgarib borishidir. Shuning uchun, ijtimoiy zaruriyat tufayli mahalliy xalq har bir xo‘jalik yuritadigan joyga alohida nom bergan:

- loyqa - soy suvlari olib kelgan, allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan, tog‘ oldi tekisligi, qishloq etagidan 10-15 km pastroqda joylashgan unumdar erlar. Asosan g‘alla ekilib, bahorda yog‘ingarchilik mavsumida 2-3 marta sug‘orilib yaxshi hosil olingan, qurg‘oqchilik yillarida dehqonchilik qilinmagan;

- cho‘1 (dash) - loyqadan yuqoriqda joylashgan tog‘oldi tekislik hududi hisoblangan. Mahalliy xalqning bir qismi o‘zining chorvasi bilan bahor oylarida bu joylarga ko‘chib chiqib, undan efemer o‘simliklar qurib qolguncha yaylov sifatida foydalangan. Bu hududda dehqonchilik qilinmagan;

- tagob - soylar atrofi va qisman tog‘oldi daralarda joylashgan sug‘orma unumdar yerlardan iborat bo‘lgan hudud. Tagobda mevali bog‘lar va tokzorlar barpo etilgan, hamda uy-ro‘zg‘or uchun zarur bo‘lgan mayda dehqonchilik qilingan. Bog‘ va ekinlar buloqlardan hosil bo‘lgan soy suvlari bilan sug‘orilgan. Ko‘pchilik aholi yoz oylarini shu joyda, soya-salqin maskanlarda o‘tkazgan;

- yayloq (ko‘h) - tog‘ning eng baland qismida (1800-2100 m), joylashgan yaylov. Aholining chorvasi ko‘p bo‘lgan qismi shu hududga ko‘chib chiqqan. Yaylov butun jamoaga tegishli bo‘lib, undan birgalikda foydalangan.

Eng muhimi, Jizzax vohasi mahalliy tojiklari yerdan unumli va oqilona foydalanishga alohida e’tibor bergenlar hamda muayyan tabiiy geografik qonuniyatlarga rioya qilganlar. Masalan, hudud relyefning ko‘tarilib borishi bilan, ekin maydonlar kamayib, yaylovlar hududi ko‘paygan. Sug‘orma ekinlar asosan, soylar atrofidagi vodiylarda va tog‘ etagidagi (chashmakor) tekisliklarda parvarish qilingan. Tog‘ning o‘rta qismidagi yerlar ko‘pincha lalmikor dehqonchilik qilish uchun foydalangan.